

MEDITSINAGA OID MATNLARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATI

ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ МЕДИЦИНСКИХ ТЕКСТОВ

LEXICO-SEMANTIC FEATURES OF MEDICAL TEXTS

Ismailova Sayyora Tolkinovna,
Central Asian Medical University tibbiyot universiteti o'qituvchisi, Farg'ona, sayyorkin09@mail.ru
Xojaliyev Ismail Tadjibayevich,
Farg'ona davlat universiteti, f.f.n., dotsent

Ismailova S. T., & Xojaliyev I. T. MEDITSINAGA OID MATNLARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATI. Acta CAMU, 1 (ISSN: 2181-4155), 100–102. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7578766>

Annotatsiya. Maqolada matn tushunchasiga izoh berilgan, meditsinaga oid matnlar terminologiyasining o'ziga xosligi ko'rib chiqildi. Terminlarning ikki nominatsiyalikligiga e'tibor qaratildi. Tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalarining anatomiya va fiziologiya darsliklari matnlari taxlil qilindi va ularning leksik-semantik hususiyatlari aniqlandi. Meditsinaga oid terminlar va ularning lotin tilidagi ekvivalentlari ko'rib chiqildi.

Kalit so'zlar va iboralar: matn, leksik-semantik, kalka, metafora, atama, kommunikativ birlik, atoqli otlar.

Аннотация. В данной статье даётся определение текста и рассматривается особенность и двух номинантность медицинской терминологии. Были рассмотрены тексты, данные в учебниках по анатомии и физиологии студентов медицинских вузов. Были определены лексико-семантические особенности медицинских текстов. В статье рассмотрены медицинские термины и их эквиваленты на латинском языке.

Ключевые слова и словосочетания: текст, лексико-семантические, кальки, метафора, термин, коммуникативная единица, знаменательные существительные.

Annotation. This article defines the text and discusses the peculiarity and two nominations of medical terminology. The texts given in Anatomy and Physiology textbooks of medical university students are determined. The article deals with medical terms and their equivalents in Latin.

Key words and word combinations: discourse, lexica-semantic, loan, metaphor, term, communicative unit, proper nouns.

Kirish. Matn lingvistik kateqoriya bo'lib qolmasdan, u turli fan yo'nalishlarining tadqiqot obykti hisoblanadi. U insonning bilish faoliyati bilan bog'liq holda kognitologiyada tadqiq etilsa, insonning ruhiy faoliyati mahsuli sifatida hamda ta'sir etish effektiga egaligi jihatdan psixologiyada o'rganiladi. Shuningdek, har qanday matn ilm-fanning biror sohasiga yoki kasb-hunarga ixtisoslashadi. O'zi ixtisoslashagan sohaga oid ilmiy ma'lumotlarni yuzaga kelishida lingvokognitiv jarayon birligi sifatida alohida o'rin tutadi hamda mavjud ma'lumotlarni zarur o'rinda foydalanish uchun o'zida saqlaydi. Matn ushbu maqola doirasida axborot uzatish, uni qayta ishlashning maxsus turi sifatida ko'rib chiqiladi. Bu ma'lumotni til vositalar orqali uzatish va qabul qilishdan iborat bo'lgan murakkab kognitiv jarayondir.

Meditsinaga oid matn o'zi nima? Tibbiy matn – bu, ixtisoslashgan tibbiy nashr yoki shaxsiy xarakterdagi matn bo'lib, uning semantik strukturasi tibbiyotga oid mazmun tashkil etadi. Odatda, bunday matnlar har qanday emotsional-ekspressivlikdan holi bo'lib, unda bo'yoqdor so'zlar ishtirok etmaydi. Bunday matnlar sohaga oid terminlar va maxsus qisqartmalardan iboratdir [1].

Meditsinaga oid matnning muhim lingvistik xususiyati – unda maxsus lingvistik birliklar, ya'ni sohaga oid terminlar boshqa matnlarga nisbatan ko'p qo'llanadi. Meditsinaga oid matn tarkibida qo'llangan oddiy so'zlar ham ko'chma ma'nodan holi bo'lib, aniq bir tushunchani ifodalab

keladi. shuning uchun tibbiy matni o'rganish bilan bog'liq barcha muammolar atamalar bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Bunday matni odatiy tahlil usullari orqali yaqindan o'rganib bo'lmaydi. Chunki mavjud atamaning semantik strukturasi matn tarkibida aniq namoyon bo'ladi. Meditsinaga oid matnlar sohaga oid atamalarning mavjudli, unda ishlatilgan oddiy so'zlarning ham nominativ funktsiya bajarishi (konnotativ funktsiyadan holiligi), aniq bir tushunchaga teng bo'lishi bilan ajralib turadi.

Metodlar. Meditsinaga oid matnlarni tadqiq etishda lingvokognitiv, komponent tahlil, qiyoslash, tavsiflash metodlaridan foydalanildi. Natijada bunday matnlarning o'ziga xos belgilari aniqlandi.

Meditsinaga oid matnlarning muhim belgisi shundaki, bunday matnlar heterogen birliklar bilan to'yinganligi bilan boshqa sohaga oid matnlardan farq qiladi. Bunday matnlarning shakllanishida maxsus atamalarning ko'p qo'llanishi fikrni til qobig'iga ko'chirishining o'ziga hosligi bilan xarakterlanadi. Meditsinaga oid atamalar ifodasi orqali eng yuqori kognitiv samaraga erishiladi. Chunki meditsinaga oid atama ilmiy ma'lumotni jamlaydi va samarali ilmiy faoliyatda ishlatilish uchun sharoit yaratadi. Atama ilmiy matni kommunikativligini belgilaydi va ilmiy bilimni namoyon qiladigan yangi shakl hisoblanadi. Termin semantik jihatdan tahlil qilinganda, minimal darajaga ega, minimal kommunikativ birlik sifatida bir jumlagacha teng va ayni paytda kognitiv va pragmatik vaziyatni to'liq qayta namoyon etish uchun yetarli bo'lak hisoblanadi [2]. Quyidagi misolda, buni yaqqol ko'rishimiz mumkin. **Tromboz** – ma'lum patologik holat natijasida tirik organizm qon tomiri ichida (intravaskular) qon ivish jarayoni. Ilm-fanning boshqa sohalarida ham terminlar ma'lum bir tushuncha bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'lanishi, bir ma'noliligi bilan ajralib turadi. Biroq meditsinaga oid terminlarda bu, bevosita, kognitiv jarayonga turtki beruvchi, o'zida juda katta axborotni jamlovchi va saqlovchi, o'z navbatida, bu axborotni fikrlash jarayonini yuzaga keltiruvchi omil darajasiga ko'tarishi bilan ajralib turadi. **Tromboz** atamasi yuqoridagi izohidan tashqari mutaxassisda qon ivishi natijasida tromb xosil bo'lishi, uning oqibatida kelib chiqadigan og'ir fiziologik jarayonlar, uni oldini olish uchun qo'llanadigan choralar kabi faqat mutaxassis idrok qila oladigan kognitiv jarayonni yuzaga kelishiga turtki bo'ladi.

Natija va hulosalar. Ilmiy izlanish natijasida tibbiy matnlar boshqa sohaga oid matnlardan o'ziga xos xususiyatlari bilan farqlanishi ma'lum bo'ldi. Bunday matnlar logik izchillikka ega bo'lib, unda qo'llangan so'zlar aniq ma'noli bo'ladi. Tibbiyotga oid terminlar matning asosini tashkil etadi. Matn markazida tibbiyotga oid atamalar tursa, matnning qolgan qismi ana shu atama bilan bog'liq fiziologik belgilarni ko'rsatish uchun xizmat qiladi. Shu ma'noda meditsinaga oid termin o'zining terminologik ma'nosidan tashqari, matni shakllantiruvchi reaktiv funktsiyasini bajaradi.

Ixtisoslashgan matnlarda uchun polisemiya, omonimiya, sinonimiya va antonimiya, o'xshatish kabi semantik hodisalar ham uchraydi. Atamalarning yuzaga kelishida bunday leksik-semantik hodisalar ham rol o'ynaydi. Biroq atamaning semantik strukturasi so'zning bosh ma'nosidan butunlay uzilgan bo'ladi. Sohada yuzaga kelgan atamalar metaforik hususiyatga ega emas, lekin ular umumxalq tilidagi so'zlarning ma'nosi metaforik ko'chirilishi natijasida hosil bo'lishi mumkin: **kurak** (suyak), **bolg'acha** (suyak), **parda** (quloqda), **narvon** (suyak). Ba'zi atamalarda kichraytirish ma'nosini beradigan **-cha** qo'shimchasi islatiladi: **qorincha**, **boshcha**, **oyoqcha** kabi. Biroq bu o'rinda **-cha** qo'shimchasi so'zlashuv, badiiy, publitsistik matnlardagidek semantik strukturaga ega bo'lmaydi. Boshqa matnlarda kichraytirish bilan birga erkalash, mensimaslik, ironiya kabi konnotativ semalar ham ifodalanadi: **bolacha**, **qizcha**, **odamcha**, **buzoqcha**, **uloqcha** kabi. **-cha** qo'shimchasi meditsinaga oid atamalar tarkibida qo'llanganda esa har qanday emotsional-ekspressiv semadan holi bo'ladi.

Chakka chuqurchasi (**fossa temporalis**) orqa va yuqoridan chakkaning pastki chizig'i, pastdan chakka osti qirrasini va yonoq ravog'ining oldingi chekkasi, oldindan yonoq suyagi bilan chegaralanadi.

Meditsina bilan bog'liq holda anatomiya, fiziologiya, biologiyaga oid matnlarda *organlar*, *hujayralar*, *to'qimalar*, *kasalliklar*, *potologiyalar*, *simptomlar* va shu kabi atamalar bilan birgalikda ma'nosi faqat soha mutaxassislarigagina ma'lum bo'lgan *ossa manus*, *ossa garpi*, *ossaphoideum*, *os*

ethomoidale, artusulatio atlantoaxialis, pulmo, margo anterior, pars mediastinalis kabi boshqalar nomini anglatuvchi atamalar ham keng qo'llanadi:

Suyak (qattiq) tanglay (*palatum osseum*) o'zoro o'rta chiziqda choklar vositasida birikkan o'ng va chap ustki jag' suyaklari tanglay o'sig'i hamda tanglay suyagi gorizonttal plastinkalaridan hosil bo'ladi. Old va yon tomondan ustki jag' suyagi alveolar o'siqlari bilan chegaralanadi. Suyak tanglay og'iz bo'shlig'ining ustki devorini hosil qilib, pastki yuzasi bukilgan. Uning o'rtasidan o'rta tanglay choki (*sutura palatina mediana*) o'tgan bo'lib, oldingi uchida kurak tishlar sohasidagi kanal (*canalis incisivi*) joylashgan.

Shuningdek meditsinaga oid matnlarda o'zlashtirma so'zlar, kalkalash asosida o'girilgan so'zlar ham ko'p qo'llanadi:

Hazm tizimining oldingi uchi ektodermadan taraqqiy etadi. Daun sindromi (21 xromosomaning trisomiyasi) genom patologiyalarning bir shakli bo'lib, unda kariotip ko'pincha normal 46 o'rnida 47 xromosoma bilan ifodalanadi. Yangi tug'ilgan chaqaloq va emizikli bolada to'g'ri ichak devori yupqa bo'ladi.

Tibbiy matnlarda ishlatiladigan terminlarning yana bir o'ziga hosligi, ularning lotin tilidagi ekvivalentiga ega bo'lishidir. Masalan, *pastki jag' yoki mandible, ko'krak qafasi yoki thorax, jigar kasalligi yoki gepatit kasalligi* va boshqa ko'plab terminlar.

Tibbiy matnlarda, o'zbek va lotin tilidagi atamalar matnni boyitish, qaytariqning olini olish maqsadida bir-birining o'rnida ishlatiladi. Masalan: *Qovurg'alar 12 juft bo'lib, orqa tomondan ko'krak umurtqalarning tanasiga birikadi. Har qaysi costae ikki qismdan iborat.*

Xulosa. Meditsinaga oid matnlardagi atamalarning shakllanishi oddiy va ko'pchilik uchun qiziq emas bo'lib ko'rinishi mumkin, lekin ularda aniqlikdan tashqari, so'z yasalishining pragmatik, strukturaviy shakllari mavjud bo'ladi. Bu kabi matnlar taxlil qilinganda, ulardagi atamalarning lotin tilidagi ekvivalentlari mavjudligi, kalka va o'zlashtirma so'zlar ham ishlatilishi aniqlandi.

Adabiyotlar.

1. Sayyora Tolkinovna Ismailova, & Ismail Tadjibayevich Xojaliyev (2022). MEDICAL TEXT AND ITS BASIC UNITS. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 2 (4), 271-275.
2. Mishlanova S.A. PYAL kak kategoriya kognotivnogo terminovedenya. Izmenyayushiyasya yazikavoy mir. 2002. 213-216.
3. Hojaliyev, I. (2021). Methodology and significance of meaning in translation of uzbek literature.
4. Hojaliev, I. (2020). December). The emotional function of speech. In Konferencii.